

**OILAVIY-MAISHIY ZO‘RAVONLIKNING OLDINI OLISH VA
PROFILAKTIKASI BO‘YICHA HUQUQBUZARLIKLAR
PROFILAKTIKASI INSPEKTORLARINING MA‘MURIY FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Selimanova S.M.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

kafedra mudiri

yuridik fanlari doktori, professor.

ANNOTATSIYA

Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarining oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning oldini olish va profilaktika qilish bo‘yicha ma‘muriy-huquqiy faoliyati o‘rganilgan, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan, olimlarning fikrlari o‘rganilgan, oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning statistik ma‘lumotlari o‘rganilgan hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, oilaviy-maishiy zo‘ravonlik, huquqbuzarliklarning oldini olish, aholining alohida toifalari bilan manzilli ishlash, huquqbuzarliklar va jinoyatlarni hisobga olish, jamoat tartibi.

АННОТАЦИЯ

В статье изучена административно-правовая деятельность инспекторов по профилактике правонарушений по предупреждению и профилактике семейно-бытового насилия, а также проанализированы нормативно-правовые акты в области защиты женщин от притеснения и насилия, изучены мнения ученых, изучены статистические данные о семейно-бытовом насилии и разработаны предложения по совершенствованию системы профилактики правонарушений.

Ключевые слова: профилактика правонарушений, семейно-бытовое насилие, предупреждение правонарушений, адресная работа с отдельными категориями населения, учет правонарушений и преступлений, общественный порядок.

ABSTRACT

This article examines the administrative and legal activities of crime prevention inspectors in preventing and preventing domestic violence, analyzes regulatory legal acts in the field of protecting women from harassment and violence, examines the

opinions of scholars, examines statistical data on domestic violence, and develops proposals for improving the crime prevention system.

Keywords: *crime prevention, domestic violence, crime prevention, targeted work with specific categories of the population, recording of offenses and crimes, public order.*

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda jamiyatning transformatsiyasi amalga oshirilish jarayonlari doirasida davlat hokimiyati organlari faoliyatining asosiy tamoyillari, shakllari va usullari qayta ko‘rib chiqildi, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ma‘muriy faoliyatini keng ko‘lamli, ko‘p qirrali modernizatsiya qilishni nazarda tutuvchi davlat-boshqaruv faoliyati sohasida, jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish va ularga chek qo‘yish sohasida islohotlar amalga oshirildi.

Ta‘kidlash joizki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar (jinoyatchilik, giyohvandlik, nazoratsizlik, ishsizlik, zo‘ravonlik va boshqalar) oilada zo‘ravonlik harakatlarining sodir etilishiga olib keladi. Oilaviy-maishiy munosabatlarda zo‘ravonlikning ko‘payishi keng qamrovli muammo bo‘lib, uni hal qilishning konstruktiv mexanizmlarini izlashni talab etadi. Shunday qilib, oilada zo‘ravonlik profilaktikasini o‘rganish, ularning yechimini topish davlatning dolzarb vazifasidir.

Davlat rahbari ta‘kidlaganidek, ...»ayollarga yoki bolalarga qo‘l ko‘targan odamlar qonun oldida qat‘iy javob beradi. Uning so‘zlariga ko‘ra, bunday shaxslar yo mamlakatni tark etishlari, yoki qonunga muvofiq yashashni o‘rganishlari kerak bo‘ladi» [1].

BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda qariyb 3,8 million kishi, shundan 1 million 800 ming nafari ayollar oiladagi zo‘ravonlik qurboniga aylanadi. Maishiy nizolar zahirida barcha qasddan odam o‘ldirishlarning uchdan ikki qismi sodir etiladi. Zo‘ravonlik qurboniga eng zaiflar - bolalar, ayollar, keksalar aylanadi [2].

O‘zbekiston Respublikasida ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari qayd etildi 2025-yilning birinchi yarmida 48 303 ta shunday holat qayd etilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 121 foizga ko‘pdir. Olti oyda 41 mingdan ziyod xotin-qizlarga himoya orderi berildi. Zo‘ravonlik darajasi yuqori bo‘lgan asosiy hududlar Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari bo‘ldi [3].

Ta‘kidlash joizki, milliy qonunchilik bazasida oilaviy-maishiy zo‘ravonlikka qarshi javobgarlik kuchaytirildi, uni kriminallashtirish hamda ayollar va bolalarni himoya qilish kuchaytirildi. Maishiy zo‘ravonlik (urish, qiynash) uchun jinoiy va ma‘muriy javobgarlik joriy etildi, taraflarni yarashtirishga esa faqat sud orqali yo‘l

qo'yiladi. Jabrlanganlarni reabilitatsiya qilish va «baxtli oilaviy hayot»ga o'rgatish tizimi yaratildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oiladagi zo'ravonlikning oqibatlari vayronkor xususiyatga ega: bu ayollar va bolalarning jismoniy, ruhiy, jinsiy va reproduktiv salomatligi sohasidagi muammolardir. Ayolning nafaqat huquqlari, balki hayoti ham xavf ostida qoladi. Oilaviy zo'ravonlikning salbiy jismoniy va psixologik oqibatlari bilan bir qatorda, ijtimoiy va iqtisodiy zararni ham bartaraf etib bo'lmaydi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik oilalarga avloddan avlodga zarar yetkazadi, jamiyatda keng tarqalgan boshqa zo'ravonliklarni kuchaytiradi. Zo'ravonlikka uchragan ayollar ijtimoiy hayotda to'laqonli ishtirok eta olmaydilar.

Oiladagi shafqatsiz muomala bilan bog'liq moddiy xarajatlar ham sezilarli. Ular bevosita xarajatlar (ayollar va ularning bolalarini davolash va qo'llab-quvvatlash, jinoyatchilarni javobgarlikka tortish) va bilvosita xarajatlardan (ishni yo'qotish, unumdorlikning pasayishi) iborat.

Ta'kidlash joizki, ayollarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etishga qaratilgan asosiy qoidalar 1979-yilda - Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyada (CEDAW yoki «Ayollar konvensiyasi») shakllantirilgan. Oiladagi zo'ravonlik muammosini maxsus ko'rib chiqish, uning oldini olish va oldini olishga urinishlar, inson huquqlarini himoya qilish masalalari bir qator xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan: BMT Bosh Assambleyasining ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi deklaratsiyasi (1985-yil), Pekin harakatlar platformasi, BMTning ayollar muammolari bo'yicha 4-Butunjahon konferensiyasining yakuniy hujjati (1995-yil), BMT Bosh Assambleyasining zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi rezolyutsiyasi (1997-yil). Ushbu sohada xalqaro majburiyatlarning qabul qilinishi har bir mamlakatda ushbu huquqni qonuniy mustahkamlash va uni amalga oshirish mexanizmlarini belgilash zarurligini anglatadi, chunki davlat hokimiyati organlarining muammoga yetarlicha e'tibor bermasligi xalqaro huquqiy normalarni buzishdir.

Hozirgi vaqtda dunyoning 90dan ortiq davlatida maishiy zo'ravonlik to'g'risidagi qonunchilik qoidalari amal qiladi, bu davlatlarning 60 tasi oiladagi zo'ravonlikka qarshi, 7tasi ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi maxsus qonunlar qabul qilgan.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik bazasi oilaviy-maishiy asosda, birinchi navbatda, yaqin qarindoshlar tomonidan zo'ravonlikning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabat muhitini, shu jumladan

jazoning muqarrarligini ta'minlash, og'ir ijtimoiy ahvolda bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash orqali tartibga soluvchi turli me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oladi.

Insonning jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, mulkiy va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligidan qat'i nazar, huquq va erkinliklari tengligini kafolatlovchi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy hujjat hisoblanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq ...» Inson sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Ularni kamsitishga hech narsa asos bo'la olmaydi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas....»

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalar Fuqarolik, Jinoyat, Oila kodekslari va boshqalarda aniqlashtirildi. So'nggi 35 yil ichida bolalar va ayollarning fuqarolar sog'lig'ini saqlash, mehnatni muhofaza qilish, aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasidagi asosiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Hukumat qarorlarining keng to'plami qabul qilindi [4].

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida quyidagilar ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashtirish, oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

oilaviy va shaxslararo nizolar, o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ruhiy tushkunlik holatlari va jamiyat hamda oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlarning barvaqt oldini olish, shuningdek, ushbu jarayonda keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash;

ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashuv tizimini yo'lga qo'yish, yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni, birinchi navbatda, oilaviy-maishiy vaziyatlarni hal etishda davlat organlari, shu jumladan fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlikning samarali tizimini shakllantirish;

nizoli vaziyatlarning barvaqt oldini olish, ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashuv tizimini takomillashtirish, eng avvalo, «xavf guruhi»dagi shaxslar va oilalarni manzilli qo'llab-quvvatlash orqali fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish;

nizoli vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini, shu jumladan oilaviy-maishiy zo‘ravonlikni, o‘z joniga qasd qilish kayfiyatini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va o‘rganish, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

jamiyatda oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishiga, birinchi navbatda, yaqin qarindoshlar tomonidan, shu jumladan jazoning muqarrarligini ta‘minlash, og‘ir ijtimoiy ahvolda bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash orqali murosasiz munosabat muhitini qaror toptirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, oilaviy va shaxslararo munosabatlar sohasida qonuniylikni mustahkamlash, ijtimoiy reabilitatsiya va moslashuv jarayonlariga daxldorlik hissini kuchaytirish [5].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni zo‘ravonlik turlarini, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlarini, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini va boshqalarni belgilaydi [6].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olishga doir qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni mamlakatda bolalar va ayollar huquqlarini ishonchli ta‘minlash, ularni tazyiq va zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishlaridan himoya qilish, jamiyatda bunday holatlarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, davlat organlari va tashkilotlarining muvofiqlashtirilgan va samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yishni belgilab beradi [7].

Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qiluvchi eng muhim qonunlardan biridir. 11-bob voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini va bolaning himoyalanih huquqini tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun ma‘muriy javobgarlik belgilangan (59-modda²), jinoiy javobgarlikka kelsak, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik joriy etilgan (126-modda¹).

Shuni ham ta‘kidlash kerakki, oiladagi zo‘ravonlik, tazyiq va tazyiq qurbonlariga (jumladan, bolalar va ayollarga) tajovuzkordan himoyalanih uchun rasmiy davlat hujjati «*himoya orderi*» joriy etildi. Himoya orderi ichki ishlar organining mansabdor shaxsi (profilaktika inspektori) tomonidan beriladi. Himoya orderi tegishli hududda tazyiq va zo‘ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi

tomonidan tazyiq va zo‘ravonlik fakti yoki ularni sodir etish tahdidi aniqlangan paytdan e‘tiboran 24 soat ichida o‘ttiz kungacha bo‘lgan muddatga beriladi va rasmiylashtirilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi. Himoya orderi bir yil muddatga beriladi (zarurat bo‘lganda yana bir yilga uzaytirilishi mumkin).

Himoya orderida quyidagi cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

tazyiq va zo‘ravonlik qilishni taqiqlash;

tazyiq va zo‘ravonlik qilishni taqiqlash;

tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo‘ravonlik qurbonlari bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta‘lim muassasalarida tazyiq va zo‘ravonlik qurboni hamda tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxs o‘rtasida bilvosita aloqaga yo‘l qo‘yiladi);

tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo‘ravonlik qurbonlari bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta‘lim muassasalarida tazyiq va zo‘ravonlik qurboni hamda tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxs o‘rtasida bilvosita aloqa o‘rnatilishiga yo‘l qo‘yiladi);

tazyiq va zo‘ravonlik qurboni hamda tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan taqdirda bir xonada yolg‘iz qolishining taqiqlanishi;

tazyiq va zo‘ravonlik qurboni hamda tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan taqdirda bir xonada yolg‘iz qolishini taqiqlash;

tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxsni davolash, maslahat berish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus markazga joylashtirish xarajatlarini, yetkazilgan moddiy zararni qoplash, shuningdek ma‘naviy zararni qoplash majburiyatini yuklash va boshqalar [8].

Aksariyat hollarda oiladagi zo‘ravonlik «yopiq eshiklar ortida» va guvohlarsiz sodir bo‘ladi. Ko‘pincha jabrlanuvchi va zo‘ravon birga yashaydi va zo‘ravonlik holatlari haqida ariza berish, ayniqsa, dalillar to‘plash jabrlanuvchi uchun xavfsiz emas. Bundan tashqari, jabrlanuvchi uchun dalillarni to‘plash jiddiy protsessual qiyinchiliklar bilan bog‘liq, chunki barcha dalillar jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq olinishi kerak, bu esa yuridik ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxs uchun oilaviy zo‘ravonlarni javobgarlikka tortish imkonini beradi.

Shuni e‘tirof etish kerakki, amaldagi milliy qonunchilik oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning oldini olish, unga chek qo‘yish va profilaktika qilishga qaratilgan bo‘lib, u jabrlanuvchilarning oldini olish, ularni himoya qilish va zo‘ravonlarni jazolashga, shuningdek, zo‘ravonlikdan jabrlangan jabrlanuvchilarga himoya

orderlarini berishga qaratilgan normalarni o'z ichiga oladi. Chora-tadbirlar profilaktik suhbatlar, ijtimoiy reabilitatsiya, ma'muriy va jinoiy javobgarlikni o'z ichiga oladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarining ma'muriy faoliyatini takomillashtirish uchun oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish, yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etishda mahalla yettiligi, davlat organlari vakillari bilan o'zaro hamkorlik darajasini oshirish zarur.

Bundan tashqari, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarini oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan yakka tartibdagi profilaktik ishlarning shakllari, usullari va uslublariga maqsadli o'qitishni doimiy ravishda amalga oshirish zarur. Profilaktik faoliyatni tashkil etishni, xususan, oiladagi zo'ravonlikning oldini olishni modernizatsiya qilishning muhim jihati nizoli oilalar bilan manzilli ishlash mezonlarini to'g'ri tanlashdir.

Ta'kidlash joizki, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorining aholi bilan o'zaro hamjihatligini chuqurlashtirish yo'lida samarali natijalarga erishish uchun xodimlarning kasbiy kompetentligini tubdan takomillashtirish lozim.

Birinchidan, ichki ishlar organlarida o'qish va xizmatga tayyorgarlik ko'rish davrida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning yangi faol shakllari va usullariga (muloqot treninglari, ishbilarmonlik o'yinlari, oilaviy-maishiy nizolarning oldini olish, shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi amaliy mashg'ulotlar) ustunlik berish maqsadga muvofiq, bu profilaktika inspektori, oilaviy janjalchi, jabrlangan tomon, shuningdek, aholi bilan o'zaro hamkorlikning amaliy ko'nikmalarini mashq qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, o'qish davomida bo'lajak xodimlarni kommunikativ trening elementlari bilan faolroq o'rgatish lozim.

Uchinchidan, oilaviy-maishiy munosabatlarda zo'ravonlikning oldini olishda politsiyaning aholi bilan hamkorligi sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasini faol o'rganish kerak.

Oilaviy-maishiy munosabatlarga asoslangan zo'ravonlikning sifatli profilaktikasi va oldini olish uchun so'nggi yillarda mamlakatda oilaviy-maishiy nizolarga aralashish natijasida yuzaga keladigan ekstremal holatlar ko'payganligini ham hisobga olish zarur. Xususan, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori va mahalla yettiligi qarindoshlar o'rtasida kelib chiqqan nizo ancha keskinlashgan paytda o'sha joyda bo'ladi. Aksariyat nizoli vaziyatlar huquqbuzarlik profilaktikasi inspektori tomonidan huquqbuzarning g'ayriqonuniy harakatlari to'xtatilganda yuzaga keladi. Huquqbuzar ayni paytda hayajonlangan bo'ladi, shuning uchun har doim xodim uning tajovuzkorligi obyektiga aylanishi xavfi mavjud. Voqealarning bunday rivojlanishi mumkinligini nazarda tutish lozim, shuning uchun

huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori tajovuzdan qochishga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun quyidagilar zarur:

- huquqbuzarning ichki holatini (tajovuzkorlikka moyil profaylinglikni) aniqlash;
- u haqida ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish orqali unga ta'sir o'tkazishga harakat qilish (ishontirish usuli);
- kuchlar nisbatini baholash, profilaktika inspektoriga kim va nima bilan yordam bera olishini aniqlash (patrul-post xizmati naryadini chaqirish, tez tibbiy yordam va boshqalar);
- huquqbuzarga xotirjam, xushmuomalalik bilan, suhbat ohangini ko'tarmasdan, lekin shu bilan birga ishonch va hukmronlik bilan, e'tiroz bildirmaydigan ohangda murojaat qilish, hech qachon unga o'zi boshqarmagan va sodir etmagan harakatlarni nisbat bermaslik;
- hech qanday keskin harakatlar qilmaslik.

Huquqbuzarning shaxsiy fazilatlari, uning qo'zg'alish darajasi, alkogolli mastlik ta'siri yoki boshqa yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda profilaktika inspektoriga tinchlanish imkoniyatini taqdim etish zarur. Bu huquqbuzarga ruhiy zo'riqishni bartaraf etishga yordam beradi. Shunday qilib, oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish va unga chek qo'yish vaqtida shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida bo'lajak ofitserlarni yanada puxta kasbiy tayyorlash zarurati tug'iladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari xizmatining oilaviy-maishiy nizolar profilaktikasi va oldini olish bo'yicha faoliyatini ratsionallashtirish tegishli huquqiy ta'minotning mavjudligiga, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorining mahalla yettiligi, organlar va mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati bilan nizoli vaziyatlarning barvaqt oldini olish, ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish tizimini takomillashtirish, eng avvalo, oilaviy-maishiy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar va oilalarni manzilli qo'llab-quvvatlash orqali doimiy hamkorligiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 8 Mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan 2026-yil 7-martdagi tantanali tabriknomasi \ O'zbekiston yangiliklari - Repost.uz.
2. Мурзабаева С. Ш., Пискалкова-Паркер М.П. Законодательное регулирование проблемы семейно-бытового насилия в странах Содружества \ Евразийская интеграция: экономика, право, политика. 2025, №14

3. Ichki ishlar vazirligining 2025-yilgi statistik ma'lumotlari
4. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi «Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3827-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'RQ-561-son Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-martdagi «Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olishga doir qo'shimcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-33-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'RQ-561-son Qonuni.